

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalgaga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiqu qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)


	Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	37 840 112,5 %
	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	36 713 110,6 %
	Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)	2 182 50,5 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalgaga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-iyun holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyatini hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatni ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-may oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-may oylarida 2 182 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 401 ta, xususiy korxonalar – 358 ta, oilaviy korxonalar – 311 ta, muassasalar – 31 ta va boshqalar – 81 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi (1-iyun holatiga ko'ra)




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 7 857 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida – 109,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,4 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – 109,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 123,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) va SUV bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 105,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (17,8 %), Qo'qon shahar (13,3 %), Marg'ilon shahar (10,1 %), Uchko'prik tumani (5,3 %), Dang'ara tumani (4,7 %), Oltiariq tumani (4,6 %), Quva tumani (4,5 %), O'zbekiston tumani (4,5 %), Buvayda tumani (4,3 %), Toshloq tumani (4,3 %), Farg'ona tumani (3,8 %), Bag'dod tumani (3,5 %), Rishton tumani (3,3 %), Qo'shtepa tumani (3,1 %), Quvasoy shahar (3,1 %), Beshariq tumani (3,1 %), Furqat tumani (2,4 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,2 %), Qo'qon shahar (11,7 %), Marg'ilon shahar (10,3 %), Uchko'prik tumani (5,1 %), Dang'ara tumani (3,9 %), Oltiariq tumani (5,6 %), Quva tumani (5,6 %), O'zbekiston tumani (4,5 %), Buvayda tumani (4,5 %), Toshloq tumani (5,5 %), Farg'ona tumani (4,2 %), Bag'dod tumani (4,4 %), Rishton tumani (4,2 %), Qo'shtepa tumani (2,7 %), Quvasoy shahar (4,5 %), Beshariq tumani (3,2 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (1,8 %), Yozyovon tumani (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 4013 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 579 taga yoki 116,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3846 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 446 taga yoki 113,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 311 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 383 taga yoki 44,8 % ga kamayganini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)


	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	2 403	3 400	3 846
<i>shu jumladan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	225	268	270
Sanoat	1 172	1 563	1 732
Qurilish	30	32	52
Savdo	324	648	787
Tashish va saqlash	56	72	76
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	322	456	528
Axborot va aloqa	31	31	33
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17	28	41
Boshqa turlar	226	302	327

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra 444 tani tashkil etib, ulardan 432 tasi yoki 97,3 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 103 taga yoki 130,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 26 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	145	170	225	339	432
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	2	4	22	27
Sanoat	107	122	159	199	247
Qurilish	3	3	5	7	12
Savdo	12	14	26	58	76
Tashish va saqlash	2	4	4	7	12
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	7	9	14	15
Axborot va aloqa	1	3	2	4	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	5	6	7	9
Boshqa turlar	6	10	10	21	30

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)**

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	444	298	146
Oltiariq tumani	20	13	7
Qo'shtepa tumani	8	5	3
Bag'dod tumani	9	8	1
Buvayda tumani	9	8	1
Beshariq tumani	6	4	2
Quva tumani	16	9	7
Uchko'priq tumani	15	10	5
Rishton tumani	11	9	2
So'x tumani	5	3	2
Toshloq tumani	14	10	4
O'zbekiston tumani	21	19	2
Farg'ona tumani	26	15	11
Dang'ara tumani	18	9	9
Furqat tumani	5	2	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	152	102	50
Qo'qon shahar	58	35	23
Quvasoy shahar	26	21	5
Marg'ilon shahar	20	15	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalarning asosiy qismi Farg'ona shahrida 152 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 34,2 %), Qo'qon shahar 58 ta (13,1 %), Quvasoy shahar 26 tani (5,8 %), Farg'ona tumani 26 ta (5,8 %), Qo'shtepa tumani 8 ta (1,8 %), Beshariq tumani 6 ta (1,3 %) hamda So'x tumanida 5 tani (1,1 %) tashkil etadi.


**Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)**

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	110	84	26
Qozog'iston Respublikasi	14	11	3
Ozarbayjon Respublikasi	5	3	2
Qirg'iz Respublikasi	28	25	3
Tojikiston Respublikasi	4	4	
Turkmaniston Respublikasi	1	1	
Ukraina Respublikasi	4	3	1
Xitoy Xalq Respublikasi	103	56	47
Turkiya Respublikasi	40	25	15
Janubiy Koreya Respublikasi	38	23	15
Boshqalar	97	63	34


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Farg'ona viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 24,8 %, Qozog'iston Respublikasi 3,2 %, Xitoy Xalq Respublikasi 23,2 %, Qirg'iz Respublikasi 6,3 % va Turkiya Respublikalari 9,0 % ga to'g'ri kelmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari soni		01.06.2020 jamiga nisbatan %
	01.06.2019- yil	01.06.2020- yil	
Farg'ona viloyati	27 252	30 699	100,0
Oltiariq tumani	1 210	1 385	4,5
Qo'shtepa tumani	833	916	3,0
Bag'dod tumani	889	1 024	3,3
Buvayda tumani	1 225	1 359	4,4
Beshariq tumani	738	834	2,7
Quva tumani	1 125	1 291	4,2
Uchko'prik tumani	1 469	1 629	5,3
Rishton tumani	747	854	2,8
So'x tumani	611	673	2,2
Toshloq tumani	1 207	1 393	4,5
O'zbekiston tumani	1 196	1 339	4,4
Farg'ona tumani	896	1 063	3,5
Dang'ara tumani	1 336	1 505	4,9
Furqat tumani	598	693	2,3
Yozyovon tumani	511	582	1,9
Farg'ona shahar	5 003	5 493	17,9
Qo'qon shahar	3 900	4 295	14,0
Quvasoy shahar	803	964	3,1
Marg'ilon shahar	2 955	3 407	11,1

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020- yilning yanvar-may oylarida, birlikda)



2020-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (13,0 %), Qo'qon shahar (11,9 %), Marg'ilon shahar (10,4 %), Uchko'prik tumani (5,1 %), Dang'ara tumani (4,0 %), Oltiariq tumani (5,6 %), Quva tumani (5,5 %), O'zbekiston tumani (4,5 %), Buvayda tumani (4,5 %), Toshloq tumani (5,6 %), Farg'ona tumani (4,0 %), Bag'dod tumani (4,5 %), Rishton tumani (4,1 %), Qo'shtepa tumani (2,7 %), Quvasoy shahar (4,6 %), Beshariq tumani (3,0 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (1,8 %), Yozyovon tumani (2,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayatganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a section titled "RASMIY STATISTIKA" with various links like "Elon qilish taqvimni", "Metamalumotlar", etc. The central part of the page shows a form for "Korxonalar" (Enterprises) registration. The top of the form has dropdown menus for "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Usulby materiallar", and "Statistik klassifikatsiyalar". The "Statistik klassifikatsiyalar" menu is currently selected, showing options like "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati" and "Korxonalar pasporti". Below the form, there are buttons for "STIR kodini kiritning", "Rasmidagi kodni kiritning", and "Qidiruv". To the right, there is a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to various reports and documents.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyat statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 249-87-34**